

Elmurodov Jaxongir Badalmurod o‘g‘li

Samarqand shahar 49-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mahalla tizimida yoshlar faolligini oshirish masalalari yoritilgan. Unda yoshlarni ijtimoiy hayotga faol jalb etish, kasb-hunar va tadbirkorlikka yo‘naltirishda mahallaning o‘rni. Shuningdek mahalla, ta‘lim muassasalari hamda jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik yoshlar faolligini oshirishning muhim omili ekani ta‘kidlanadi. Maqola jamiyat barqarorligi va kelajak taraqqiyotida yoshlarning faol ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan. Yoshlar faol bo‘lgan mahalla- kuchli va farovon jamiyat demakdir.*

This article highlights the issues of increasing youth activity within the mahalla system. It examines the role of the mahalla in actively engaging young people in social life, as well as in guiding them toward vocational skills and entrepreneurship. It also emphasizes that cooperation between the mahalla, educational institutions, and public organizations is an important factor in increasing youth activity. The article is aimed at ensuring the active participation of young people in maintaining social stability and future development. A mahalla with active youth is a strong and prosperous society.

В данной статье освещаются вопросы повышения активности молодежи в системе махалли. В ней рассматривается роль махалли в активном вовлечении молодежи в общественную жизнь, а также в их ориентации на профессиональное образование и предпринимательство. Кроме того, подчеркивается, что сотрудничество между махаллей, образовательными учреждениями и общественными организациями является важным фактором повышения активности молодежи. Статья направлена на обеспечение активного участия молодежи в поддержании стабильности общества и его будущего развития. Махалля, в которой молодежь активна, — это сильное и процветающее общество.

Kalit so‘zlar: *Mahalla, yoshlar, yoshlar faolligi, mahalla tizimi, yoshlar tarbiyasi, ota-onaning o‘rni, bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish, kasb-hunar, sport.*

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va faoligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, mahalla yoshlarning tarbiyasi, bandligi va tashabbuslarini ro‘yobga chiqarishda asosiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Mahalla tizimida yoshlar bilan ishlash avvalo ularning qiziqish va ehtiyojlarini aniqlashdan boshlanadi. Sport to‘garaklari, kasb-hunarga yo‘naltiruvchi loyihalar yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishiga xizmat qiladi. Bu esa ularni turli salbiy illatlardan arashda muhim omil bo‘ladi.

Bugungi kunda tadbirkorlikka qiziqayotgan yoshlar soni ortib bormoqda. Mahalla tizimi orqali ularga maslahat, yo‘naltirish va amaliy ko‘mak berish yoshlarning iqtisodiy faolligini oshiradi.

Natijada nafaqat yoshlar bandligi ta‘minlanadi, balki mahalla rivojiga ham, hissa qo‘shiladi.

Ota-onalar farzandlariga to‘g‘ri tarbiya berishi, ularni jamiyatdagi masuliyatli shaxs sifatida voyaga yetkazishda bevosita masuldir. Shuningdek ota-onalarning mahalla faollari bilan doimiy aloqada bo‘lishi yoshlar tarbiyasida ijobiy natijalar beradi. Farzandning qiziqish va iqtidorini o‘z vaqtida aniqlash, uni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali yoshlarning faolligini oshiradi. Ota-onalarning befarq bo‘lmasligi farzandini mahalla hayotiga jalb etishi yoshlarni tashabbuskorlikka undaydi. Mahalla tizimida yoshlar faollogini oshirishda ota-onaning roli beqiyosdir. Ota-ona va mahalla hamjihat bo‘lsa, yoshlar faol, ma‘suliyatli va barkamol bo‘lib voyaga yetadi. Mahallada ota-onalarning farzandlarini tarbiyalash va ularning ilimga va kasb-hunarga yo‘naltirganligi uchun mahalla tomonidan “Farzand tarbiyasidagi fidoyilik” ko‘krak nishoni berilishi, oila qadiryatini mustahkamlash va ijtimoiy rolini oshirishga hissa qo‘shadi. Bu mukofotni olgan ota-onalarning ijtimoiy mavqeyi oshadi. Mahallada boshqa oilalar ham farzandlariga ta‘lim-tarbiya va kasb-hunarga yo‘naltirish soni ortadi. Ushbu nishon farzand tarbiyasidagi haqiqiy fidoyilikni qadrlash va targ‘ib qilishga qaratilgan.

U ota-onani rag‘batlantiradi va jamiyatda ijobiy oilaviy muhitni mustahkamlaydi. Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega [3.113]. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo‘lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo‘lsa, buni sezish, ko‘rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta‘siri va oqibatlarini tezda ilg‘ab yetish nihoyatda qiyin [3.113]. Bu yorug‘ olamda eng buyuk jasorat ima, degan savolga, hech ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat – bu ma‘naviy jasorat, deb javob bersak, o‘ylaymanki yanglishmagan bo‘lamiz [3.159].

Ota-ona o‘z boslalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. [1]. Ular o‘z bolalarning sog‘ilig‘i, jismoniy, ruhiy, ma‘naviy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilishlari shart. “Qobusnoma” asarida ota-onalarning farzand tarbiyasidagi vazifalardan biri; o‘qish-yozishni o‘rgatish, kasb-hunar va ilimli qilish to‘g‘risida yozilgan [1.6]. Sharq mutafakkirlari yosh avlod tarbiyasida ilm, hunar va mehnatni eng muhim omil sifatida baholaganlar [4]. Ularning asarlarida kasb-hunar egallash inson kamoloti jamiyat taraqqiyoti va shasning baxtli hayot kechirishi uchun zarur shart sifatida talqin etiladi. [4].

Abu Nasr Forobiy “ har bir inson o‘z qobiliyatiga mos kas egallashi lozim”. Yoshlarni hunarga o‘rgatish davlat va jamiyatning muhim vazifasidir. [4]. Farobiy yoshlarni ilm bilan birga amaliy hunarga o‘rgatishni tarbiyaning asosiy yo‘nalishi deb bilgan. [4].

Qadimgi dunyo kishilari ijtimoiy turmush tabiiy amaliy harakat faoliyatlaridan maqsadli foydalanishgan. Bunda sekin, o‘rtacha va tez yurishlar, yugurishlar, sakrashlar, uloqtirishlar kabi mashqlarni keng qo‘llashgan. Ijtimoiy tuzumla, jamiyat taraqqiyoti, tabiatning u yoki bu tomonga o‘zgarib turushlari, ularning inshonlarga ko‘rsatgan ta‘sir kuchlari natijasida ularning mehnat faoliyatlari yangilanib rivojlanib borgan [2.89].

Xxi asrda obi-havoning buzilishi jismoniy tarbiyaning ahamiyatini yanada oshirdi. Sog‘lom avlodni tarbiyalash uchun jismoniy tarbiya uyg‘unligini ta‘minlash zarur. Jismoniy

tarbiya nafaqat tanani chiniqtiradi, balki jamiyat salomatligini mustahkamlashda muhim, omil bo‘lib xizmat qiladi.

Obi-havoning buzlishi inson salomatligiga, ayniqsa yoshlar oilalarnig jismoniy rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli , hozirgi davrda jismoniy tarbiyaviy, balki sog‘liqni saqlnn mhm omiliga aylandi. Maktablarda jismoniy tarbiya dars soatlarini oshirish, maktabdanoq yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish mahalla tizimida yoshlar faolligini oshiradi.

Xulosa

Yoshlar faolligini kuchaytirishda mahalla raislari, yoshlar yetakchilari, ta’lim muassasalari, ota-onalar va jamoatchilikning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sport, madaniyat, ma’nav-ma’rifiy tadbirlar yoshlarning qiziqishlarini inobatga olgan holda tashkil etilsa, ularning ishtiroki sezilarli darajada ortadi.

Xulosa qilib aytganda, mahalla tizimida yoshlar faolligini oshirish uzluksiz, tizimli va maqsadli yondashuvni talab etadi. Yoshlarning fikrini tenglash, ularni qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etish., hamda tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali kuchli fuqarolik jamiyatini shakillantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Oila tarbiyasida ota-onalarning vazifalari”. Usanov Sherzod. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand-2023.
2. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi. Toshkent-2021.
3. “Yuksak ma’naviyat va yengilmas kuch”. Islom Karimov. Toshkent-2010y.
4. Mirzaraxmonova. Sh.M. Kasb-hunarga yo‘naltirish asoslari. Toshkent-2023y.